SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 10 - may 78-9-131-Q/23 Shirin shahar hokimligi

Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

2023-yilda Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi yerlarida yong‘in kelib chiqishining hamda tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligining 2023-yil 4-apreldagi 01/39-08-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qaroriga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. 2023-yil yoz, kuz fasllarida Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi yerlarida va fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan o‘rmonlarda tamaki mahsulotlari chekish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

2. Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi hududida yong‘in xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari 1-ilovaga, favqulodda holatlarda yong‘inni bartaraf etish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi (X.Alimbekov), "Nurobod" MFY raisi (O.Sariyev) yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ulligi belgilab qo‘yilsin.

4. Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi (X.Alimbekov), "Nurobod" MFY raisi (O.Sariyev) bilan birgalikda Davlat o‘rmon fondi yerlarida

yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli aholini jalb qilish va ularni asbob-uskunalar va oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

5. Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi (X.Alimbekov), "Nurobod" MFY rais (O.Sariyev) o‘rmon xo‘jaligi yer fondi va qo‘riqxona yerlariga yaqin joyda yashayotgan aholiga o‘rmon xo‘jaligi yer fondi yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi (X.Alimbekov), o‘rmon hududida yong‘in xavfsizligi qoidalarini targ‘ib etish axborot panolarini o‘rnatish choralarini amalga oshirilishi tashkil etilsin;

sodir bo‘lgan yong‘inlarni tez va kam talofatlarda bartaraf etish maqsadida, o‘rmon hududida yong‘in tarqalishini oldini olish uchun qismlarga ajratish hamda hududdagi ichki yo‘llarda yong‘in o‘chirish avtomobili harakatlanishi uchun yetarli sharoit yaratish choralari ko‘rilsin.

7. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari (K.Azimjonov), “Shirin sadosi” gazetasi muharriri (O.Ashirqulov)lar ushbu qarorni nashr etilishi va hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

8. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Z.Abduvohidov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **S.Sultonov**

Shirin shahar hokimining
2023 yil 10 maydagi
78-9-131-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi yerlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari

№	Amalga oshiriladigan ishlar	Bajarish muddati	Bajarishga mas’ul
1	1.O‘rmonlarda va o‘rmon bilan qoplangan Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgarlikni xis etish, yong‘in bo‘lishi ehtimoli kuchli davrda belgilangan yong‘in xavfsizligi ishlarini bajarish, Davlat o‘rmon fondi yerlarida chiqqan yong‘inni tezkorlik bilan uchirish va bu to‘g‘risida Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limiga xabar qilish	Mavsum davomida	Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi
2.	O‘t-o‘lan bilan qoplangan yerlarda. Qamishzor va o‘rmonzor yaqinida, shamolli ob-havoda gulxan yoqishni ta’qiqlash, yonib turgan narsalarni tashlash uchun maxsus joylar tashkil qilish	Mavsum davomida	Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi
3	Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in chiqishi xavfi bor hududlarda suv idishlari suv to‘ldirilgan holda (kichik va katta hajmli suv idishlari) joylashtirish	Mavsum davomida	Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi
4	Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in chiqqan holda yong‘in chiqqan joyda ko‘ngilli yong‘in o‘chirish bo‘linmalarini, belgilangan yong‘in o‘chirish ishchi kuchlarini o‘z vaqtida yetkazish, texnikalar bilan ta’minlashni to‘g‘ri va aniq tashkil qilish	Mavsum davomida	Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi
5	Chorva mollari boqiladigan, ov qilinadigan, beda o‘riladigan o‘rmonlarda, bolalar oromgohlarida, dam olish zonalarida, yong‘in uchirish qurollarini bo‘lishini nazorat qilish, Davlat o‘rmon fondi yerlariga yaqin yerlarda va unga olib boruvchi yo‘llar yoqasiga olovdan ehtiyotlik bilan foydalanishga chaqiruvchi yong‘in chiqish xavfidan ogohlantiruvchi belgilarni qo‘yish	Mavsum davomida	Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi
6	Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzuvchilarni tezkorlik bilan aniqlash, ularni ustidan zudlik bilan bilan tegishli hujjatlarni tuzib, keltirilgan zararni undirib olish choralarini ko‘rish, yong‘inga qarshi kurash maqsadida tezkorlik bilan harakat qiluvchi guruh tuzish, uni harakat yo‘nalishini belgilash va shu mavzuda seminar tashkil qilish	Mavsum davomida	Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi

Shirin shahar hokimining
2023 yil 10 maydagi
78-9-131-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yilda Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi yerlarida favqulodda holatlarda yong‘inni bartaraf etish

R E J A S I

T/r	Shirin shahar	Joylashgan aholi		Yong‘inga qarshi o‘chirish asboblari			O‘rmon bo‘limlarining nomi	Texnikalar soni	Shundan suv tashish mashinasi
		Jami	Shundan yong‘in o‘chirishga qatnashadi	Bolta	Arra	Belkurak			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Nurobod MFY	2000	65	20	15	30	Sirdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi Shirin bo‘limi	0	0

Kerakli narsalar yuboriladigan joylar	Tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etishda javobgar shaxs	Yong‘in bo‘ladigan joylarda aloqani tiklash bo‘yicha javobgar shaxs	O‘rmon bo‘limi boshliqlarining I.F.O	Yong‘inni o‘chirish bo‘yicha javobgar shaxs	Texnika va yong‘in o‘chirish asbob-uskunalarini olish joyi
11	12	13	14	15	16
Fuqarolar yig‘inlari	Shahar Tibbiyot birlashmasi	“O‘ztelekom” AK Shirin shahar filial	X.Alimbekov	O‘rmon inspektori	O‘rmon xo‘jaligi, Mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari